
3-9 OKTYABR KUNLARI MAMLAKATIMIZDA "KEKSALAR XAFTALIGI" BO'LIB O'TADI.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 sentyabrdagi tegishli bayoniga asosan, joriy yilning 3-9 oktyabr kunlari "Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish — xalqimizga xos ezgu fazilat" g'oyasi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida "Keksalar haftaligi" o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi axborot xizmati bergan ma'lumotiga ko'ra (<https://t.me/mahallavaoilainfo/19073>), yurtimizdagi barcha mahallalarda nuroniylar, shu jumladan, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar ishtirokida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, tanlovlar, xayriya tadbirlari, jumladan, nuroniy va yoshlar uchrashuvlari o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-10-03 10:44:01